

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI XALQARO BITIMLAR, KONVENSIYALAR VA ULARDA O‘ZBEKISTON ISHTIROKI

Qurbonboyeva Nodira Yusufjon qizi

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, mustaqil izlanuvchi
qurbonboyeva2021@gmailcom*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy xalqaro ekologik huquqning rivojlanishi va shakllanishining asosiy jihatlari, bu sohadagi xalqaro hujjatlarning ahamiyati va ularning qo‘llanilishi ochib berilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilishning mohiyati ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya huquqi, xalqaro shartnoma, ekologiya, atrof-muhit, atrof-muhitni muhofaza qilish, ratifikatsiya qilish

**МЕЖДУНАРОДНЫЕ ДОГОВОРЫ, КОНВЕНЦИИ В ОБЛАСТИ ОХРАНЫ
ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И УЧАСТИЕ В НИХ УЗБЕКИСТАНА**

Курбанбаева Надира Юсуфжан кизи,
Узбекский государственный университет мировых языков,
независимый исследователь
qurbonboyeva2021@gmailcom

Аннотация. В этой статье раскрываются основные аспекты развития и формирования современного международного экологического права, значение международных документов в этой области и их применение. Рассмотрена сущность охраны окружающей среды.

Ключевые слова: экологическое право, международный договор, экология, окружающая среда, охрана окружающей среды, ратификация

**ENVIRONMENTAL PROTECTION INTERNATIONAL AGREEMENTS,
CONVENTIONS AND UZBEKISTAN’S PARTICIPATION IN THEM**

Kurbanbaeva Nodira Yusufjon qizi,
Uzbekistan state world languages university, independent researcher
qurbonboyeva2021@gmailcom

Abstract. This article reveals the main aspects of the development and formation of modern international environmental law, the significance of international documents in this area, and their application. The essence of environmental protection has been considered.

Keywords: environmental law, international treaty, ecology, environment, environmental protection, ratification

KIRISH

Yer yuzida aholi sonining keskin o'sib borishi, fan va texnikaning shiddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarning bir tekis tarqalmaganligi mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar ko'proq foydalanish va shu yo'l bilan jamiyat taraqqiyotini tezlatishni taqozo qiladi. Natijada tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami-kechmi ekologik inqirozga olib keladi.

Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik holat ko'pchilikni birdek bezovta qilmoqda. Ekologik halokat ko'z o'ngimizda dahshatli tus olmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi ekologik inqirozning sababchisi va o'z aqli-zakovati bilan shu inqirozdan xoli etuvchisi ham inson ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qat'i nazar insonlarning ekologik savodxonlik darajasiga va ekologik madaniyatiga bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI HAMDA METODLAR

Ekologiya fanining rivojlanishi bosqichma-bosqich bo'lib, o'tgan asrning (XIX asrning) 60-yillaridan boshlanadi. Bu fanning rivojlanishi bosqichmabosqich amalga oshib bordi, dastlab ekologiya biologiya fanining bir bo'laki hisoblandi, XX asr boshlariga kelib, bir qator fidoyi olimlarning mehnati, ya'ni Ch.Adam va A.Tepsli, Ch.Elpeon, V.N.Sukachev va V.I.Vernadskiy, Aleksandr Gumgold, Charlz Darwin, V.V.Dokuchaev, G.F.Morozov, V.N.Sukachev va boshqalarning tabiatni hamda undagi tirik organizmlarni o'rganishi orqali ekologiya fani shakllanib bordi. O'zbekistonda ham bir qator olimlar bu fanning rivojlanishida o'z hissalarini qo'shishgan, K.Z.Zokirov, A.M.Muzaffarov, D.N.Qashqarov N.I.Granitov, T.Raximova, A.E.Ergashev va boshqalar o'z asarlarida ekologiyaning ilmiy masalalarini bayon qilishgan. Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, borlariga yechim berish maqsadida bugungi kunda ko'plab olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda, xalqaro darajada shartnomalar, bitimlar imzolanmoqda. Xususan, Usmanov E. M, Kukushkina A. V, D.Y. Yormatova, X.S.Xushvaqtova, P.S.Sultonov kabi bir qator olimlar xalqaro ekologik siyosatni tartibga solishda xalqaro ekologik hujjatlarning roli haqida fikrlar bildirishgan. Maqolani tayyorlash jarayonida ushbu olimlarning fikrlari asosida, analiz, qiyoslash, umumlashtirish kabi metodlardan foydalanilgan.

NATIJARAR

Bugungi kunda turli mamlakatlar tabiatga zarar yetkazayotgan fuqarolari uchun javobgarlik choralari kuchaytirmoqda, chunki nafaqat yuzaga kelgan ekologik muammolarni tuzatish, balki tabiiy muhitni rivojlantirishga har tomonlama yordam berish muhim vazifalardan biriga aylangan. Xususan, O‘zbekistonda BMTning Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiyaga 1995-yilda qo‘shilganidan so‘ng Milliy strategiya va Harakatlar rejasi tasdiqlandi. Ushbu soha davlat siyosati darajasiga olib chiqilib, sohaning tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashtirildi. Xususan, ushbu maqsadlarda 2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish Strategiyasi ishlab chiqildi, unda asosan mamlakat umumiy er maydonining 12 foizini muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toifasiga kiritish rejalashtirildi. Shuningdek, 2019-2028 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi samarali amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonning 1992-yil 2-martda BMTga teng huquqli a‘zo bo‘lib kirishi tabiat muhofazasi sohasidagi amaliy ishlar uchun keng yo‘l ochib berdi. 1992-yili Rio-de Janeyroda o‘tkazilgan BMTning 2-jahon tabiatni muhofaza qilish kongressida Respublikamiz birinchi bor mustaqil davlat sifatida qatnashdi: Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda BMTning atrof-muhit muammolari bilan shug‘ullanuvchi 7 ta missiyasi faoliyat ko‘rsatmoqda, ayniqsa, Orol va Orol bo‘yidagi ekologik muammolar Xalqaro tashkilotlarning diqqat markazida bo‘lib, ushbu yo‘nalishda turli tadbirlar o‘tkazilmoqda. O‘zbekiston 1985-yilda bo‘lib o‘tgan ozon qatlamini himoya qilish (Vena) konvensiyasi, 1987-yilgi ozon qatlamini yemiruvchi birikmalar bo‘yicha Protokol (Monreal), 1989-yilgi (Bazel) xavfli chiqindilarni chegaralararo tashishni nazorat qilish konvensiyasi, 1992-yilgi (Rio-de-Janeyro) biologik rang-baranglikni saqlash konvensiyasi, 1992-yilgi (Nyu-York) iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi konvensiyalarga qo‘shildi. Hozirda ushbu yo‘nalishlarda faol harakatlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston 1992-yilda imzolangan MDH Davlatlararo Ekologiya Kengashining teng huquqli a‘zosi hisoblanadi.

Tabiatni muhofaza qilish muammolari bo‘yicha O‘zbekiston 1996-yilda Turkiya bilan, 1997-yilda XXR (Xitoy) bilan xalqaro hamkorlik bitimiga imzo chekkan. Vengriya, Slovakiya, Lyuksemburg Litva kabi mamlakatlar bilan ekologiya masalalari bo‘yicha bitimlar tuzilgan. O‘zbekistonning barqaror rivojlanish jarayoniga qo‘shilishi 1994-yildan boshlandi. 1995-yilda Nukus shahrida BMT tomonidan Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish bo‘yicha xalqaro Konvensiya 1994-yilda qabul qilingan Orol to‘g‘risidagi qarorni yanada rivojlantirish imkonini bergan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida tabiatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha qator xalqaro yig‘ilish va konvensiyalarga qatnashishi natijasida mamlakatimizning ekologik muhitini muhofaza qilish bo‘yicha ijobiy siljishlarga erishildi. Respublika

tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi xalqaro ekologik kengashning (XEK) faol qatnashchisi bo‘lib, qabul qilingan qarorlarini izchillik bilan bajarib kelmoqda.

MUHOKAMA

O‘zbekiston 2018-yildan beri Espo konventsiyasi va SEB Protokoliga muvofiq atrof-muhitga ta’sirni baholash materiallari, ya’ni atrof muhitga ta’sirni baholash va SEB tizimlarini rivojlantirishni faol qo‘llab-quvvatlamoda. O‘rnatilgan ikki tomonlama shartnomaga muvofiq O‘zbekistondagi zamonaviy atrof muhitga ta’sirni baholash va SEB tizimlari to‘g‘risidagi qoidalarni o‘z ichiga olgan Kodeksning qabul qilinishi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va mintaqaning muhim dolzarb ekologik muammolarini hal qilishda, shuningdek, mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Konventsiyaga muvofiq amalga oshiriladigan atrof-muhitga ta’sirni baholash yondashuvining ijobiy tomoni uning ayniqsa, xalqaro sheriklar va investorlar uchun shaffofligi va ravshanligida namoyon bo‘ladi. Har bir loyihaga individual yondashish atrof-muhitga ta’sirni baholash paytida aniq muddatlar va choralarni qo‘llashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga atrof muhitga ta’sirni baholash materiallarida yakuniy qarorni qabul qilishda manfaatdor tomonlar va jamoatchilik fikrlarini maksimal darajada ko‘rib chiqish ta’minlanadi.

Insoniyat boshiga ko‘lanka solib turgan ekologik falokatlarning oldini olish bo‘yicha Xalqaro hamkorlikni amalga oshirish ma’lum darajada shakllangan va muhim tadbirlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, hali bu boradagi ishlarni yanada izchil faollashtirish zarur. Chunki hozirgacha atrof-muhit muhofazasi va insoniyatga yetarli, qulay yashash sharoitlarini yaratish masalalarini boshqarib turuvchi tom ma’nodagi keng ko‘lamli, ta’sirchan, xolis, yagona xalqaro tizim vujudga kelgani yo‘q. Ko‘rinib turibdiki, Xalqaro ekologik hamkorlik takomillashib borishi insoniyat taraqqiyotining bundan keyingi bosqichlarida ham muhim hayotiy zarurlardan biri bo‘lib qolaveradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, dunyo mamlakatlarining ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorligi muhim, rivojlanayotgan va istiqbolli hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mamlakatimizning tabiiy boyliklari va kengliklarini hisobga olgan holda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi normativ bazani doimiy ravishda kengaytirib bormoqda.

Huquqiy tartibga solish va normalarga rioya qilish har bir mamlakatda har bir fuqaro tomonidan amalga oshirilishi kerak. Bizning hayotimiz bir joyda turmaydi, tabiat uchun ham, odamlar uchun ham yangi muammolar va turli xavf-xatarlar paydo bo‘lmoqda. Shuning uchun odamlar va mamlakatlar eng qulay atrof-muhitni yaratish ustida birgalikda ishlashlari zarurligi juda muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Усманов Э. М. “Роль международного экологического права в регулировании международной экологической политики”// “Век глобализации”. 2009 г;

2. Кукушкина А. В. К вопросу о формировании международного права окружающей среды как отрасли / Кукушкина А. В. // “Закон и право”. 2020 г;

3. Baratov R. “Tabiatni muhofaza qilish”, T., “O‘qituvchi”, 1991-y;

4. Shodimetov Y. “Ijtimoiy ekologiyaga kirish”. I, II qism. T., “O‘qituvchi”, 1994-y;

5. Qodirov E.V va boshqalar. “Tabiiy muhitni muhofazalashning ekologik asoslari”. T., “O‘zbekiston”, 1999-y;

6. Xolmurodov J. “Ekologiya va qonun”, T., “Adolat”, 2000-yil;

7. Iskandarov I., Yuldashev S., “Xalqaro hamkorlik natijalari”.

<https://uznature.uz/uz/site/news?id=1186>